



23.11.2022 даги

" JURAT JASORAT MAYDONI" МСНЖ ва Шофиркон туман ирригация булими ўртасида 10800000 сўм  
умумий суммага тузилган № 370-2-41-ІВ/2022 - сонли шартномага

**ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ\***

Боб 170  
Шахсий ғазна ҳисобварак 100022860062587042402170001

2022 й. ойлар номи.	Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди)			сўмда Жами
	4252110			
Январь				
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь	10 800 000,00			10 800 000,00
Декабрь				
<b>Жами йил бўйича</b>	<b>10 800 000,00</b>			<b>10 800 000,00</b>

Жами 10800000 сўм

Ўн миллион саккиз юз минг сўм

сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 3240000,00 сўм ёки 30,00% \*\*\* шартноманинг умумий суммасидан 30% \*\*\*  
2022 йил ноябр ойида тўланиши лозим

(\*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан ғазначилик бўлинмасига икки нусхада тақдим этилади;

(\*\*) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(\*\*\*) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан оёйга \_\_\_\_\_% жорий оёйнинг \_\_\_\_\_ санасигача ҳар оёйда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа хизматлари ва конун ҳужжатларида назарда тутилган ҳар оёй доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирлади).



Буюртмачи бош бухгалтери

(имзо)

Аминов Феруз Фахриддинович  
Ф.И.Ш.

(имзо)

Махмудов Кенжа Тураевич  
Ф.И.Ш.

Ғазначилик бўлинмасининг  
ходими қабул қилди

Буюртмачи ходими  
қабул қилди

(имзо)

(имзо)

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ й.

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ й.

## MAHSULOT YETKAZIB BERISH SHARTNOMASI

23«11»2022 yil.

370-2-41-IB/2022-son

“**JURAT JASORAT MAYDONI**” MCHJ (keyingi o‘rinlarda “Yetkazib beruvchi” deb yuritiladi), o‘zining nizomi, asosida ish yurituvchi direktori J.Qutliev bir tomondan va Shofirkon tuman irrigatsiya bo‘limi (keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladi), o‘zining nizomi asosida ish yurituvchi rahbari F.Aminov ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

### 1.ShARTNOMANING PREDMETI

1.1.Mazkur shartnomaga asosan Yetkazib beruvchi Buyurtmachiga quyida ko‘rsatilgan miqdor va narxda tovar (mahsulot) yetkazib berish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa o‘z navbatida tovarni (mahsulotni) qabul qilib olib haqqini to‘lash majburiyatini oladi:

No	Tovar (Mahsulot) nomi	O‘lchov birligi	Soni	Narxi	Bahosi QQS bilan birga
1	Qurilish bo‘yog‘i	kg	250	43200	1080000 0
	<b>JAMI:</b>				10800000

1.2.Mazkur shartnomaga asosan yuqoridagi jadvalda ko‘rsatilgan tovar (mahsulot)ni yetkazib berish muddati shartnoma tuzilib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab 5 kun ichida yetkazib beriladi.

### 2.TO‘LOV SHARTLARI

2.1.Ushbu shartnomaning umumiy summasi QQS bilan 10800000 (O‘n million sakkiz yuz ming) so‘m.

2.2.Sotib olinadigan Tovar (mahsulot) uchun oldindan to‘lov miqdori 3 240 000 (uch million ikki yuzi qirq ming) so‘mni, ya‘ni belgilangan summaning 30 foizini tashkil qiladi va bu oldindan to‘lov shartnoma imzolangandan keyin 15 bank ish kuni ichida amalga oshiriladi. Yakuniy to‘lovning miqdori esa 7 560 000 ( yetti million besh yuzi oltmish ming) so‘mni, ya‘ni kelishilgan summaning 70 foizini tashkil etadi va bu yakuniy to‘lov hisob-faktura (yoki ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat) taqdim qilingandan so‘ng joriy moliya yili davomida amalga oshiriladi.

2.3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 24 avgustdagi 241-sonli qarorining 1.1. bandida "Budget tashkilotlari va budget mablag‘lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish bo‘yicha summasi bir milliard so‘mgacha tuziladigan shartnomalarida 30 foiz miqdorida oldindan to‘lovni amalga oshirish nazarda tutilgan".

2.4.To‘lov shakli naqd pulsiz pul ko‘chirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

### 3. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1.Yetkazib beruvchining huquqlari:

- sotilgan tovar haqqini to‘lashni;
- tovarni o‘z vaqtida qabul qilib olishni;
- shartnoma shartlariga to‘liq rioya etishni;
- Buyurtmachi tomonidan o‘ziga yetkazilgan zararlarning qoplanishini talab qilish.

3.2. Buyurtmachi qonun hujjatlarida belgilangan asoslarsiz mahsulot yetkazib beruvchi Yetkazib beruvchidan tovarni qabul qilib olmagan yoki tovarni rad etgan hollarda mahsulot yetkazib beruvchi-Yetkazib beruvchi Buyurtmachidan tovar haqini to'lashni talab qilishga haqli.

3.3. Yetkazib beruvchining majburiyatlari:

- tovarni Buyurtmachiga mulk qilib topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan sifatdagi tovarni topshirish;
- uchinchi shaxslarning har qanday huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni Buyurtmachiga idishda yoki o'ralgan holda topshirish;
- tovarni Buyurtmachiga topshirgunga qadar saqlash.

3.4. Buyurtmachining huquqlari:

- sotib olayotgan tovarni o'ziga mulk qilib topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan sifatdagi tovarni topshirishni;
- uchinchi shaxslarning huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirishni talab qilish.

3.5. Buyurtmachining majburiyatlari:

- sotib olgan tovar haqini o'z vaqtida to'lash;
- tovarni o'z vaqtida qabul qilib olish;
- shartnoma shartlariga to'liq rioya etish;
- Yetkazib beruvchiga yetkazilgan zararni qoplash.

3.6. Buyurtmachi shartnomaning tovarlar miqdori, sifati, idishi va o'ralishi to'grisidagi shartlari buzilganligi haqida Yetkazib beruvchiga o'n kun muddat ichida malum qilishi shart.

#### **4. TOVARLARNI YETKAZIB BERISH TARTIBI**

4.1. Tovarlar tomonlar kelishuviga ko'ra Buyurtmachining omboriga yetkazib beriladi.

4.2. Yetkazib beruvchi tovarlarni maxsus himoyalangan idishlarda yetkazib beradi

4.3. Tovarni topshirish, qabul qilish joyi Buyurtmachining ombori hisoblanadi.

4.4. Tovarni topshirish muddati shartnoma tuzilib, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab 5 kuni tashkil qiladi.

4.5. Buyurtmachiga yetkazib berilgan mahsulot uchun barcha tegishli hujjatlarni taqdim etgan holda hisob- varaqni rasmiylashtirish sanasi Buyurtmachi tomonidan tovarlarni qabul qilish kuni hisoblanadi.

4.6. Ushbu shartnomaning barcha shartlari kalendar kunidan keyingi kun yoki muddat boshlanishini aniqlagan voqea sodir bo'lgan kundan boshlab hisoblanadi.

#### **5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI**

5.1. Taraflar majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida kelib chiqadigan nizolar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi subektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi» to'g'risidagi Qonuni va ushbu shartnomaga asosan hal qilinadi.

5.2. Tovarlarni yetkazib berish muddatlari kechiktirib yuborilgan, to'liq yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagan hollarda, tovar yetkazib beruvchi Buyurtmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

5.3. To'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda butunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-kitobning boshqa shakllarida tovarlar haqini to'lashdan bosh tortganlik (bark muassasasiga to'lov topshiriqnomasini taqdim etmaganlik, chek bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun Buyurtmachi (buyurtmachi) mahsulot yetkazib beruvchiga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi. Yetkazib berilgan tovarlar

haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun Buyurtmachi yetkazib beruvchiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.

5.4 Agar yetkazib berilgan tovarlar sifati, assortimenti va navi bo'yicha standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, Buyurtmachi tovarlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, sotuvchidan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirib olishga, agar tovarlar haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir. Sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar yetkazib berganlik uchun jarima sotuvchidan akseptsiz tartibda undirib olinadi.

5.5 But bo'lmagan tovarlar yetkazib berilgan taqdirda Buyurtmachi tovarlarni butlab berishni talab qilishga haqli. Yetkazib beruvchi Buyurtmachining talabini olgan paytdan boshlab, agar taraflarning kelishuvida o'zga muddat belgilangan bo'lmasa, o'n besh kunlik muddat ichida tovarlarni butlab berishi shart, bundan buyon tovarlar butlab berilgunga qadar ularning haqini to'lashdan bosh tortishga, agar tovarlarning haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, belgilangan tartibda to'langan summalar qaytarilishini talab qilishga haqli, yetishmayotgan qismlar qiymatini qo'shgan holda, yetkazib beruvchidan but bo'lmagan tovarlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli. Tovarlarni yetkazib beruvchi belgilangan muddatda tovarlarni butlab bermasa, Buyurtmachi but bo'lmagan tovarlarni qaytarib berishga hamda but bo'lmagan tovarlarni but tovarlarga almashtirishni talab qilishga haqlidir.

5.6 Marka belgisi qo'yilmagan yoki lozim darajada markirovka qilinmagan tovarlarni, shuningdek idishsiz yoki o'ralmagan tovarlarni yoxud tegishli idishga joylanmagan yoki lozim darajada o'ralmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun yetkazib beruvchi Buyurtmachiga (buyurtmachiga) bunday tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlarni qabul qilingandan keyin yana jo'natilishi yoki saqlanishi kerak bo'lgan hollarda Buyurtmachi jarima undirishdan tashqari, o'z kuchi bilan, lekin yetkazib beruvchi hisobidan tovarlarni o'rashga va idishlarga joylashga, yoxud bir shahardagi yetkazib beruvchidan tovarlarni o'rab berish yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga haqlidir.

5.7 Tovarlarni tanlab olmaslik, shuningdek yetkazib beruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni yetkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun Buyurtmachi yetkazib beruvchiga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa — 10 foiz miqdorida jarima to'laydi. Tovarlarni tanlab olinmagan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, yetkazib beruvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjudligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to'lanishini talab qilishga haqlidir.

5.8. Tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar o'zaro muzokara olib borish yo'li bilan hal qilinadi, agar tomonlar kelisha olmasalar yuzaga kelgan nizolar qonunchilikka muvofiq iqtosodiy sud tartibida hal etiladi.

## **VI. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR**

6.1. Shartnomaning taraflari, ular tomonidan jalb qilinadigan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tanlanishi lozim.

6.2. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni taraflardan biri o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

6.3. Agar shartnoma bo'yicha bir taraf boshqa tarafning axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid keladigan hatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, qonunchilikda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor qilishi shart.

6.4. Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiyaga qarshi

qo'shimcha shartlarga rioya etilmaganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabr sanasidagi PF-6313-son farmonidan kelib chiqib ikkinchi taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo'ladi.

#### VII.FORS-MAJOR HOLATLARI

7.1 Tomonlarga bog'liq bo'lmagan, oldindan oldini olish mumkin bo'lmagan holatlar shu jumladan e'lon qilingan fuqarolik urushi, epidimiyalar, blokadalar, embargolar, zilzilalar, toshqinlar, yong'inlar, shuningdek davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar, farmonlar, tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan holatda majburiyatlarni bajarmaganligi uchun tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi.

7.2. Taraflar o'zlariga bog'liq bo'lmagan holatlarda majburiyatlarni bajara olmasalar, ushbu holat yuzaga kelgan vaqtdan 3 kun ichida boshqa tarafni yozma ravishda ogohlantirishi kerak.

#### VIII.QO'SHIMCHA SHARTLAR

8.1. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

8.2. Shartnoma taraflaridan hech biri boshqa tomonning roziligisiz ushbu shartnoma bilan bog'liq huquq va majburiyatlarni uchinchi shaxsga berishga haqli emas.

8.3. Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 122-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi 594-sonli qarorining 6-bandiga asosan budget tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarning Davlat budjeti mablag'lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan kuchga kiradi va **2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.**


8.4. Mazkur shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish amaldagi qonunchilikka muvofiq yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflar tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

8.5. Mazkur shartnoma taraflarning kelishuvi bilan, bir tomon boshqa tomonni shartnomani bekor qilish vaqtidan 30 kun oldin ogohlantirgan holda bekor qilinishi mumkin.

8.6. Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzilgan bo'lib, ikkalasi ham bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi va taraflarga bir nusxadan beriladi.

8.7. Taraflarning manzili yoki hisob raqamlari o'zgartirilgan hollarda ushbu o'zgarish to'g'risida boshqa tarafga 3 kun ichida xabar beradi.

#### 9.TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

«Yetkazib beruvchi»	«Buyurtmachi»
<b>«JURAT JASORAT MAYDONI» MCHJ</b> Manzil: Buxoro viloyat, Jondor tumani, Zarafshon MFY, Zarafshon ko'chasi	Shofirkon tuman irrigatsiya bo'limi Manzil: Shofirkon tuman Zarchabek MFY
h/v 2020 8000 600 486 71 5001 Bank. Mikrokredit bank MFO:00108 INN: 303 416 143	Sultonobod ko'chasi Tel./faks 65-5024375 sh/h 100022860062587042402170001 budjetdan mablag' oluvchi STIR:207264753 0KONX:00101 G'aznachilik bo'linmasi nomi: Shofirkon tumani bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi G'azna h/v: 23402000300100001010 Bankning nomi: Toshkent sh Markaziy bank MFO: 00014 G'aznachilik bo'linmasi STIRi: 201122919 Rahbar _____ F.Aminov
Rahbar  (imzo) (F.I.Sh) J.Qutlivev	

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQOLIK TEBIYIY



Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.  
Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang.

Imzolovchi F.I.SH.	FERUZ AMINOV FAXRIDDINOVICH
Imzolangan sana	23.11.2022 09:48
Hujjat kodi	PN8508121513
Hulosa kodi	XL8108707135

Soddiykon tuzilmani  
yuridik shaklida  
bosh tashkilotlari



B.D. 24.11.2022

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN  
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

XL8108707135

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: "JURAT JASORAT MAYDONI" MCHJ bilan 10800000 (O'n million sakkiz yuz ming ) so'mlik shartnoma
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Shofirkon TIB tomonidan 22.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Shofirkon tumani  
yuridik markazi  
bosh yuristkonsulti:**



**B.O'.SAFAROV**

22.11.2022